

9-sinf O'zbekiston tarixi

9-dars: Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga Buxoro amirligi bosib olinishining boshlanishi, 1866 yil 8 mayda Erjar jangi, O'ratepa va Jizzax uchun janglar, 1864-1866 yillar davomida bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Sirdaryo viloyatining tashkil qilinishi haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'quvchilarning ozod va hur yashashga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish;

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

O'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "Klaster"
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

«Bo‘lib tashla, hukmronlik qil», Romanovski, Erjar jangi, O‘ratepa va Jizzax janglari, Sirdaryo viloyati. 1866-yil, 1864-1866-yillar.

DARSNING BO‘RISHI

I. Tashkiliy qism:

O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e‘lon qilish.

O‘qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo‘lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma‘lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma‘lumot berib o‘tiladi.

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”




O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o‘z guruhlariga nom qo‘yib olishadi hamda guruhga qo‘yilgan nomga qisqacha ta‘rif berishadi.

1-topshiriq: O‘qituvchi o‘tilgan mavzular yuzasidan o‘quvchilar tomonidan tuzib kelingan boshqotirmalar, «Marra tomon olg‘a» degan mavzular bo‘yicha savollardan tashkil topgan o‘yinlarni amalga oshiradi.

N.I gacha bo‘lgan mavzularni takrorlash o‘quvchilar tomonidan guruhlarda amalga oshiriladi.

Bilim cho‘qqilarini zabt etish uchun marra sari olg‘a!



Izoh: Aylana yoki to‘rtburchak, uchburchak ichiga savol yoziladi, guruhlardan chiqqan o‘quvchilar birin-ketin savolga javob beradi, javob berolmagan yo‘lda qoladi, javob beradigan o‘quvchi marra tomon ketaveradi.

O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to‘planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mazmuni tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

- **Buxoro amirligini bosib olishning boshlanishi;**
- **O‘ratepa va Jizzax uchiin janglar**

Buxoro amirligini bosib olishning boshlanishi



Buxoro harbiy qo‘shinlari

Toshkent shahri bosib olingandan so‘ng podsho hukumatining kelgusidagi rejasi xonliklarni navbat bilan bosib olish edi. Barcha harbiy harakatlar Toshkent shahridan turib tashkil qilindi va boshqarildi. Shu maqsadda, eng avvalo, xonliklarning birlashmasligiga qaratilgan siyosat olib borildi. Ya‘ni mustamlakachilar o‘zlarining asosiy qoidasi hisoblangan «Bo‘lib tashla, hukmronlik qil» shioriga amal qilishga kirishdi.

Podsho hukumati O‘rta Osiyodan M. Chernyayevni Sankt-Peterburgga chaqirib oldi va lining o‘rniga Turkiston viloyatining gubernatori qilib F.



Romanovskiyni tayinladi. F. Romanovskiy 1866-yilda Buxoro amirligi Rossiyaga qarshi urushga tayyorlanayotganligini bahona qilib, unga qarshi harbiy yurish boshlashga imperatordan ruxsat so'radi. Hukumat tomonidan bu taklif qabul qilingach, u Sirdaryoning o'rta oqimidagi hududlarni egallashga kirishdi. Birinchi jang 1866-yil 8-mayda Erjar qishlog'i yaqinida bo'lib, kuchlar harbiy jihatdan teng bo'lmaganligi uchun amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. F. Romanovskiy Buxoro qo'shini-ni ta'qib qilishni to'xtatib, avval Qo'qon xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasida joylashgan - Toshkent, Qo'qon, Balx va Buxoro bilan bog'lovchi Xo'jandga qarab harakat boshladi.

Turkiston viloyati harbiy gubernatori qo'shinlari tomonidan Xo'jand qal'asi may oyida qamal qilinib, 20 ta to'pdan o'qqa tutildi. Ertasi tonggacha qamal davom etib, keyin hujum boshlandi. Birinchi hujum qaytarilgandan so'ng, shahar yana qayta o'qqa tutildi. Shahar qamali va o'qqa tutish ikki kun davom etdi. Istilochilarga qarshi shahar mudofaachilari har bir qarich joy uchun mardonavor jang qildilar. Lekin harbiy texnika va son jihatdan ustun bo'lgan mustamlakachilar qo'shinlari 24-mayda tunga borib himoyachilarning mudofaasini yorib o'tdilar. Shahar ko'chalarida ko'plab mudofaachilar va tinch aholining jasadlari, vayron bo'lgan xonadonlar qoldi.

O'ratepa va Jizzax uchiin janglar

Turkiston viloyati gubernatori F. Romanovskiyga Orenburg general-gubernatori N. Krijanovskiy tomonidan harbiy harakatlarni Qo'qon xonligiga qarshi qaratish to'g'risida ko'rsatma berildi. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo-dagi harbiy harakatlari rejasiga ko'ra Qo'qon xonligining taqdiri 1866-yildayoq hal qilinib, Xo'jandda Qo'qonga qarshi hamma narsa tayyor holatga keltirilgan edi. Qo'qonga qarshi yurishga boshchilik qilish uchun N. Krijanovskiyning o'zi keldi. U Buxoro amirining vakili bilan sulh shartnomasi bo'yicha uchrashib, 10 kun mobaynida 100 ming rubl tovon to'lashni talab qildi. Belgilangan muddat o'tgach, N. Krijanovskiy Buxoro amiri talablarni bajarmaganligini bahona qilib, o'z qo'shinlariga amirlikka qarshi hujum boshlashga buyruq berdi.

1866-yilning kuzida 6 ming piyoda askar, 500 kazak, 28 to'p, 600 arava va 800 tuyadan iborat harbiy qo'shin O'ratepaga qarab harakat boshladi. Bu harakatga Qo'qonga qarshi tayyorlab qo'yilgan kuchlar ham jalb qilindi. F. Romanovskiyning harbiy qo'shinlari O'ratepaga yetib borgach, shahar uch kun to'plardan o'qqa tutildi. Shundan keyin tongda hujumga o'tildi. Shahar aholisi bosqinchilarga mardonavor qarshilik ko'rsatdi. O'ratepa to'plardan

o'qqa tutilganligi natijasida vayron qilinib, dushman tomonidan egallandi. Hujum natijasida 2 ming nafardan ko'proq aholi halok bo'ldi.

Rossiya imperiyasining harbiy qo'shinlari O'ratepani egallagandan so'ng, 12-oktabrda navbatdagi harakat Jizzaxga boshlandi. To'xtovsiz otishmalar natijasida shahar devorlari vayron qilinib, ikki kechakunduz davom etgan jangdan so'ng 1866-yil 18-oktabrda Jizzax shahri ham podsho hukumati qo'liga o'tdi. Uni bosib olish uchun bo'lgan jangda bar ikkala tomondan 6 mingdan ko'proq kishi halok bo'ldi. Bu shaharhimoyasida Buxoro amirligidan yordamga chiqqan kuchlar kechikib keldi. Ular himoyachilarga hech qanday yordam bera olmasdan orqaga qaytishdi. Podsho hukumati Jizzaxda 3 ming askar, 300 kazak va 12 to'pdan iborat harbiy kuchlarini qoldirdi. 1864—1866-yillar davomida bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Sirdaryo viloyati tashkil qilindi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darsning bu bosqichi quyidagi savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalarni o'quvchilarga (guruhlarga) tarqatish orqali bajariladi:

1-topshiriq: «Aqliy hujum».

1-GURUHGA

? Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga qarshi yurishiga bahona bo'lgan omil nima edi?



2-GURUHGA

? Jizzaxning bosib olinishini qanday izohlaysiz?

3-GURUHGA

? «Bo‘lib tashla, hukmronlik qil» degan iboradan nimani tushundingiz?

O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to‘planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



O‘quvchilarda paydo bo‘lgan savollarga javob berish;
Baholarni e‘lon qilish.

O‘quvchilar aytib o‘tgan fikrlari to‘planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so‘nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Rasmlar orqali bayon etib kelish

Kelgusi darsda o‘tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo‘shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

